



## OGAHINYNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI (“RIYOZU-D-DAVLA” ASARI MISOLIDA)

**Muallif:** Asqarova Zulayxo Yangiboyevna<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Xorazm Ma‘mun akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20229834>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy-badiiy merosiga mansub bo‘lgan “Riyozu-d-davla” asarida so‘z qo‘llash mahorati, xususan, **ishtiqoq san‘atining** badiiy va semantik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mumtoz sharq poetikasi nazariyasiga tayanib, ishtiqoq tushunchasining lug‘aviy va istilohiy talqinlari aniqlashtiriladi hamda uning tarixiy nasrdagi funksional vazifasi yoritiladi. Bu jarayonda Rashid al-Din Vatvat, Shayx Ahmad Taroziy, Ataullah Husayniy kabi mumtoz nazariyotchilar qarashlari asos qilib olinadi.

**Kalit so‘zlar:** Muhammad Rizo Ogahiy, Riyozu-d-davla, ishtiqoq san‘ati, lafziy san‘atlar, mumtoz poetika, tarixiy-badiiy nasr, so‘z yasash, o‘zakdosh so‘zlar, arabcha leksika, badiiy tasvir vositalari.

Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asaridagi so‘z qo‘llash mahoratini to‘g‘ri baholash uchun, avvalo, “ishtiqoq” tushunchasining lug‘aviy va istilohiy ma‘nolarini mumtoz manbalar asosida aniqlashtirib olish lozim. Ishtiqoqning nazariy asoslari Sharq mumtoz poetikasida chuqur ishlangan. Jumladan, Rashiddin Vatvot o‘zining mashhur “Hadoyiqu-s-sehr” asarida bu san‘atga shunday ta‘rif beradi: “Ishtiqoq – bir so‘zni ikkinchi so‘zdan olishdir. Bunda ikki lafz (so‘z) bir o‘zakdan olingan bo‘lishi, lekin ma‘no jihatdan yaqinlik saqlanishi shart”<sup>1</sup>.

Shayx Ahmad Taroziy ham “Fununu-l-balog‘a”da ishtiqoqni lafziy san‘atlar qatoriga qo‘shib, uni so‘zning asl ma‘nosiga (etimologiyasiga) e‘tibor qaratgan holda qo‘llash mahorati deb baholaydi<sup>2</sup>. Atoullah Husayniy esa “Badoyi‘u-s-sanoyi”da bu san‘atni “shibhi ishtiqoq” (ishtiqoqqa o‘xshash, lekin o‘zagi bir bo‘lmagan tovushdoshlik)dan farqlab, haqiqiy ishtiqoqda harflar va ma‘no uyg‘unligi bo‘lishi lozimligini uqtiradi<sup>3</sup>.

XIX asr Hindiston va O‘rta Osiyo adabiy muhitida keng tarqalgan va Ogahiy kabi ijodkorlar uchun asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan mo‘tabar lug‘atlarda ushbu so‘zga batafsil ta‘rif berilgan. Xususan, “G‘iyosu-l-lug‘ot” da ishtiqoq so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: “Ishtiqoq – (arabcha masdar) bir kalimani ikkinchi bir kalimadan olish; bir so‘zning ikkinchi so‘zdan yorib chiqarilishi (kelib chiqishi)”<sup>4</sup>. Muallif bu o‘rinda “Muntaxab”, “Muntaha-l-arab” kabi manbalarga tayanib, so‘zning “yorish”, “bo‘lish” va “yarimtasini olish” kabi asl ma‘nolariga ham urg‘u beradi.

<sup>1</sup> Рашид ад-Дин Ватват. Сады волшебства в тонкостях поэзии (Хада‘ик ас-сихр фи дака‘ик аш-ши‘р). – Москва: Наука, 1985. – С. 44.

<sup>2</sup> Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балого‘а. – Тошкент: Хазина, 1996. – Б. 56.

<sup>3</sup> (Атоуллох Хусайний. Бадойи‘у-с-санойи‘. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 95.

<sup>4</sup> رامپوری، غیاث‌الدین محمد بن جلال‌الدین. غیاث اللغات. جلد اول. تهران: کانون معرفت، ۱۳۳۷. – ص. ۶۳.

Shuningdek, “Farhangi Rashidiy” da ham bu fikr quvvatlanib, ishtiyoq – kalomni kalomdan (soʻzni soʻzdan) ajratib olish ekanligi taʼkidlanadi<sup>5</sup>.

“Farhangi Jahongiriy” muallifi Mir Jamoluddin Husayn Inju Sheroziy esa soʻzning etimologiyasiga chuqurroq kirib, uning oʻzakdoshlik xususiyatiga eʼtibor qaratadi va tilshunoslikdagi soʻz yasalishi jarayonini shu atama bilan ifodalaydi<sup>6</sup>. Demak, lugʻaviy jihatdan ishtiyoq – bir oʻzakdan turli maʼno va shakldagi yangi soʻzlarning “oʻsib chiqishi” yoki “ajralib chiqishi”ni anglatadi.

Adabiyotshunoslikda ishtiyoq lafziy sanʼatlarning muhim turi sifatida oʻrganiladi. Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” risolasida ushbu sanʼatga quyidagicha taʼrif berilgan: “Ishtiyoq (soʻz yasash, hosila soʻz) – baytda oʻzakdosh soʻzlarni qoʻllashdan iborat sheʼriy sanʼatdir. Bu sanʼat maʼnaviy ishtiyoq (oʻzaklari bir xil, shaklan yaqin, ammo talaffuzda farqli) va lafziy ishtiyoq (oʻzakdosh soʻzlarning ohangdosh boʻlib kelishi) kabi turlarga boʻlinadi”<sup>7</sup>.

Navoiyshunos olim Yoqubjon Isʼhoqov oʻzining “Soʻz sanʼati soʻzligi” kitobida ishtiyoqni “etimologik figura” deb ataydi va uning asosiy sharti sifatida soʻzlarning bitta oʻzakdan yasalishini koʻrsatadi: “Ishtiyoq – nutq jarayonida (bayt tarkibida) bir oʻzakdan yasalgan bir necha soʻzni keltirishdir. Masalan: Ul qiron vaqtidakim, qilgʻay qiron...”<sup>8</sup>

Yuqoridagi manbalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Ogahiy “Riyozi-d-davla” asarida ishtiyoq sanʼatidan foydalanganda, soʻzlarning nafaqat shakliy oʻxshashligiga (tajnis), balki ularning maʼnaviy va etimologik ildizlari birligiga asoslangan. Bu esa muarrixning til qonuniyatlarini va mumtoz poetika qoidalarini chuqur bilganidan dalolat beradi.

Ogahiy “Riyozi-d-davla” asarida arab tili morfologiyasining ushbu boy imkoniyatidan foydalanib, tarixiy va falsafiy mushohadalarini yuksak badiiy darajada ifodalaydi.

Ogahiyning tarixiy nasrida soʻzlar shunchaki axborot tashuvchi vosita emas, balki maʼlum bir musiqiy va mantiqiy qurilmaning ajralmas qismidir. Muarrixning Allohqulixon kundalik tartibi va mutolaaga boʻlgan ishtiyoqi tasvirlangan ushbu jumlasida ishtiyoq sanʼatining bir necha koʻrinishi namoyon boʻladi: “Chun ul hazratning sunnati sanniya va odati marziyasi ul erdikim, har kun saloti xamsa adosi va faroyizu sunan iqtizosi va mahomi saltanat tanzimi va nizomi mamlakat tasmimi va ahvoli sipoh oroyishi va xotiri fuqaro osoyishi umuridin forigʻ boʻlgʻandin soʻng baʼzi tavorixi oliyshamorixkim, azminayi sobiqa avzoyeʼining holoti va salotini moziya ahvolining hikoyatigʻa mushtamil erdi, mutolaa qilib, jahoni buqalamun savonihi-yu ahli salaf vaqoyeʼi ittiloʻidin xotiri daryomaqotiru bayzomaosiri mutaassir boʻlur erdi”. (D, 249a)

Matndagi: “...sunnati sanniya... va faroyizu sunan iqtizosi...” birikmasida “sunnat” (birlik) va “sunan” (koʻplik) soʻzlari “s-n-n” (س ن ن – yoʻl, qonun, odat) oʻzagi asosida ishtiyoq hosil qilgan. Muallif bu oʻrinda shunchaki takrorini emas, balki mantiqiy urgʻuni koʻzlagan. Agar sunnat soʻzi xonning shaxsiy odatini (paygʻambar sunnatiga amal qilishini) bildirsa, sunan soʻzi kengroq maʼnoda shariat qonun-qoidalarining majmuini anglatadi. Bu Rashididin Vatvot taʼkidlagan “maʼnoni kuchaytirish uchun bir oʻzakdan yasalgan soʻzlarni jamlash” qoidasiga toʻla mos keladi.

<sup>5</sup> حسينى، عبدالرشيد بن عبدالغفور. فرهنگ رشيدى. تهران: كتابفروشى بارانى، ۱۳۲۷. – ص. ۸۶.

<sup>6</sup> انجو شيرازى، ميرجمال الدين حسين بن فخرالدين حسن. فرهنگ جهانگيرى. جلد اول. مشهد: انتشارات دانشگاه مشهد، ۱۳۵۱. – ص. ۱۴۴.

<sup>7</sup> Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият малохати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 64.

<sup>8</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 52.

Davlat boshqaruvi tasvirida quyidagi juftlik qo'llanilgan: "...mahomi saltanat tanzimi va nizomi mamlakat tasmimi..." (RD, 249a). Bu yerda tanzim (tartibga solish, tuzish) va nizom (tartib, qonun, tizim) so'zlari arabcha "n-z-m" (ن-ظ-م tizish, tartib) o'zagidan olingan. Ogahiy bu o'rinda saj' (qofiyadosh nasr) va ishtiyoqni uyg'unlashtirgan. "Tanzim" jarayonni (harakatni) ifodalasa, "nizom" uning natijasini (holatni) bildiradi. Bu so'z o'yini davlat ishlarining uzviyligi va mukammalligini ko'rsatishga xizmat qilgan. "...ul atrofdag'i xaloyiq ahvolining tanzim va tanbihida daqiqae muhmal va nomar'iy qo'ymay..." (RD, 318a) jumlasida "tanzim" so'zi "tanbih" (ogohlantirish) bilan juftlanib, boshqaruvning ham tashkiliy, ham tarbiyaviy jihatlarini qamrab olgan.

Ogahiy asarning siyosiy-falsafiy qatlamida nizom (tartib) va intizom (tartiblilik, itoat) juftligini qo'llash orqali jamiyatdagi muvozanatni ifodalaydi: "...dinu davlat nizomining mulku millat mahomi ul amrg'a vobasta va marbutdur..." (RD, 252a). Bu yerda "nizom" so'zi din va davlatning ustuni sifatida talqin qilingan. Boshqa bir o'rinda esa: "...ul havoliydag'i elning ahvolig'a intizom berib..." (RD, 318a) shaklida kelib, xalq hayotidagi barqarorlik va osoyishtalik nazarda tutiladi. Demak, Ogahiy nazdida nizom – hukmdorning qonuni, intizom esa xalqning shu qonun asosidagi farovon hayotidir.

Parchaning eng ta'sirchan nuqtasi uning xotimasidadir: "...xotiri daryomaqotiru bayzomaosiri mutaassir bo'lur erdi" (RD, 249a). Ushbu jumlada maosir (izlar, tarixiy voqealar, yodgorliklar) va mutaassir (ta'sirlangan, iztirob chekkan yoki taassurot olgan) so'zlari a-s-r (أ-ث-ر iz, ta'sir) o'zagidan yasalgan bo'lib, murakkab ishtiyoqni hosil qiladi. Shayx Ahmad Taroziy va Atoullah Husayniy kabi nazariyotchilar ta'rifiga ko'ra, bunday uslub "so'zning asl ma'nosiga qaytish" orqali chuqur falsafiy mazmunni ifodalaydi. Ogahiy bu yerda maosir (tarix izlari)ni o'qigan insonning qalbida ta'sir (iz) qolishi tabiiy hol ekanini so'zlarning etimologik yaqinligi orqali asoslagan.

Ogahiy tarixiy nasrida ijtimoiy adolat g'oyasini ifodalash uchun arab tilidagi a-d-l (ع د ل) o'zagidan yasalgan leksik birliklar tizimidan mahorat bilan foydalangan. Muarrix bu o'zak asosida nafaqat sodda so'zlarni (adl, adolat), balki murakkab so'z yasash (tarkib) usuli bilan hosil qilingan noyob sifatlashlarni (adolatintiboh, adolatqarin) qo'llab, hukmdor siymosiga chuqur ijtimoiy mazmun yuklaydi.

Avvalo, ushbu tushunchaning mumtoz leksikografik talqiniga e'tibor qaratish lozim. "Dehxudo" lug'ati va "G'iyosu-l-lug'ot" kabi mo'tabar manbalarda "adl" so'ziga quyidagicha sharh berilgan:

*عدل [ع]: مقابل ستم. مقابل بیداد. داد... مقابل جور. ضد جور... نصف. قسط. عدالت. انصاف. امری بین افراط و*  
*تفریط... مساوات در مکافات به نیکی نیکی، و بد بدی بدی*  
Bedodlikning muqobili. Dod (adolat)... Jabrning muqobili. Jabrning ziddi... Insof. Qism (ulush). Adolat. Insof. Ifrot (haddan oshish) va tafrit (sustkashlik) o'rtasidagi ish (mo'tadillik)... Mukofotda tenglik: yaxshilikka yaxshilik, yomonlikka yomonlik)<sup>9</sup>.

Ogahiy "Riyozu-d-davla"da adolatning ana shu keng qamrovli mazmunini (zulmga qarshilik, mo'tadillik, tenglik) ifodalash uchun murakkab so'z yasash imkoniyatlarini ishga soladi.

Muarrix jang lavhalarini tasvirlashda murakkab tarkibli zulmatgustar (qorong'ulik tarqatuvchi) so'zini qo'llaydi. Bu o'rinda so'z o'yini (muqobala) g'oyatda nozik ishlangan: "...otlar na'oliddin chaqilg'an barq qarong'u tunni yog'du kunduzdek munavvar qildi va markablar tuyog'idin chiqq'an gard yog'du kunni qarong'u tunde kulmatgustar etdi" (RD, 281b). Bu tasvirda Ogahiy tabiat qonunlarini "almashtirib"

<sup>9</sup> رامپوری، غیاث الدین محمد بن جلال الدین. غیاث اللغات. جلد دوم. تهران: کانون معرفت، ۱۳۳۷. – ص. ۶۸

yuboradi: tun – yorug'likka, kun esa – “zulmatgustar” chang-to'zon tufayli qorong'ulikka aylanadi. Bu yerda ishtiyoq san'ati harbiy voqeaning shiddatini va dahshatini vizual gavdalantirishga xizmat qilgan.

“Riyozi-d-davla”da z-l-m o'zagining tafa”ul bobidagi shakli – “tazallum” (zulmdan shikoyat qilish, dod deyish) so'zi faol qo'llanilgan. Bu so'z hukmdorning fuqaro bilan muloqotini aks ettiruvchi muhim termindir: “...fuqaro va ajazaning tazallum-u dodin eshitib, boshlarig'a adolat chatrining soyasin solib...” (RD, 342a) Bu o'rinda tazallum so'zi mazlumlarning “dod”ini ifodalasa, unga javoban qo'llangan adolat (soya solish) so'zi mantiqiy yechim sifatida keladi. Ogahiy bu juftlik orqali davlat boshqaruvining “muammo (tazallum) – yechim (adolat)” formulasini namoyish etadi.

Muarrix tashqi dushmanlarni tasvirlashda zulm o'zagining ko'plik yoki mubolag'a shakli bo'lgan zullom so'zidan foydalanadi: “...kufr-u zullom xaylig'a haqorat va batolat yetkurmak uchun...” (RD, 319a).

Leksikografik manbalarda zullom so'zi “zolim”ning ko'pligi yoki “o'ta zolim” (mubolag'a) ma'nosida kelishi ta'kidlangan. Muarrix bu so'zni “kufr” (dinsizlik) bilan yonma-yon qo'yish (atf san'ati) orqali dushmanning nafaqat siyosiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham tubanligini (kofir va zolim ekanini) urg'ulaydi.

Ogahiy tarixiy nasrida arab va fors tilidagi badiiy san'atlar bilan bir qatorda, turkiy tilning qadimiy so'z yasash imkoniyatlariga asoslangan milliy ishtiyoq (figure etymologica) namunalari alohida o'rin tutadi. Bu hodisa muallifga voqea-hodisalarni jonli, tabiiy va xalqchil tilda ifodalash imkonini beradi.

Asarda qo'shinning cho'ldagi suvsizlik holati va ilohiy yordam tasviriga bag'ishlangan quyidagi parcha buning yorqin dalilidir: “Bu hol asnosida hazrati Karimi korsoz va Rahimi bandanavoz, ahli atash ahvolig'a tarahhum ko'rguzub, inoyat sahobidin ikki kechayu kunduz rahmat yomg'urin yog'durub, ul jigarso'xtalarning otashi atshon va dili so'zonig'a filjumla taskin va tamkin yetkurdi” (RD, 342b).

Ushbu jumladagi yomg'urin yog'durub birikmasi turkiy til morfologiyasi va etimologiyasi nuqtayi nazaridan mukammal ishtiyoq namunasidir. Mashhur turkiyshunos J.Klouson o'zining etimologik lug'atida yağ- (yog'-) o'zagini qadimgi turkiy tildagi yog'moq, quymoq (osmondan tushuvchi yog'ingarchilikka nisbatan) ma'nosini bildiruvchi fe'l sifatida qayd etadi<sup>10</sup>.

Ogahiy qo'llagan yomg'ur (yomg'ir) so'zi aynan shu yağ- o'zagiga -mur offiksi qo'shilishi orqali yasalgan otdir (yağ-mur). J.Klousonning ta'kidlashicha, bu qo'shimcha fe'ldan ot yasovchi qadimiy va kam hosildor shakl hisoblanadi. Ikkinchi so'z yog'durub esa xuddi shu yağ- o'zagiga orttirma nisbat (kauzativ) qo'shimchasi -dur va ravishdosh shakli -ub qo'shilishidan hosil bo'lgan. Demak, Ogahiy yomg'ur (natija/obyekt) va yog'dur- (harakat/jarayon) so'zlarini yonma-yon qo'llash orqali bitta o'zakdan o'sib chiqqan ikki so'zning semantik va fonetik uyg'unligini (ishtiyoqni) yuzaga keltirgan.

So'zlardagi “yo”, “g”, “ur” tovushlarining takrori (alliteratsiya va assonans) yomg'irning shiddat bilan yog'ishini tovush orqali ham his qildiradi. “Yog'di” emas, balki “yog'durub” (yog'dirdi) shaklining qo'llanishi bu tabiiy hodisa o'z-o'zidan emas, balki Yaratganning (Karimi korsozning) irodasi bilan sodir bo'lganiga ishora qiladi. E'tiborli jihati shundaki, Ogahiy ushbu jumlada ikki xil tizimdagi ishtiyoqni parallel qo'llagan:

<sup>10</sup> Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 896.

1. Arabcha so'zlar orqali ishtiqoq: rahim (sifat) – tarahhum (harakat) – rahmat (natija). Bu ruhiy-ma'naviy holatni ifodalaydi.
2. Turkiy ishtiqoq: yomg'ur (ot) – yog'durub (fe'l). Bu esa o'sha ilohiy rahmatning moddiylashishini, fizik voqealikka aylanishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Muhammad Rizo Ogahiyning "Riyozi-d-davl" a asarida so'z qo'llash mahorati mumtoz sharq poetikasi an'analari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Muallif tarixiy voqealarni bayon qilish jarayonida ishtiqoq san'atidan mahorat bilan foydalanib, o'zakdosh so'zlarning fonetik va semantik uyg'unligi orqali matnning badiiy-estetik ta'sir kuchini oshirgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Атоуллоҳ Хусайний. *Бадойиъу-с-санойиъ*. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 400.
2. Clauson G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 896.
3. Ҳожиаҳмедов А. *Мумтоз бадиият малоҳати*. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 240.
4. Исҳоқов Ё. *Сўз санъати сўзлиги*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 328.
5. Рашид ад-Дин Ватват. *Сады волшебства в тонкостях поэзии (Хадаик ас-сихр фи дакаиқ аш-ши'р)*. – Москва: Наука, 1985.
6. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. ("Балоғат илмлари") / Масъул муҳаррир Б. Ҳасанов / – Т.: Хазина, 1996. – Б. 212.  
<http://arabus.ru/search/> قرين (электрон манба).